



TURKISTONDA YANGI USUL(JADID) MAKTABLARINI TASHKIL ETILISHI VA TADRIJIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Yusufjanov Ulug‘bek

Turan Xalqaro Universiteti o‘qituvchisi

e-mail: ulugbekabuyusuf@gmail.com

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada Turkistonda jadid maktablarining vujudga kelishi va rivojlanishi yoritishga harakat qilindi. Maqolada rus mustamlakachilarining yangi usul maktablarini tashkil etilishiga qilgan qarshiliklari, jadid ma‘rifatparvarlarining yangi usul (jadid) maktablariga asos solish yo‘lida tatar taraqqiyparvarlari bilan hamkorlik aloqalari yoritildi.

Kalit so‘zlar: I.Gasprinskiy, Muzaffariya, Shamsuddin domla, Saloxiddin domla, “Tarjumon”, A.B.Vrevskiy, Sulton Majid G‘anizoda, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shakuriylar, «Adibi avval», Is‘hoqxon Ibrat, Behbudiy, Rozenbax

Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi ostidagi turk-musulmon dunyosini ma'naviy taraqqiyotga erishish yo‘li orqali ozodlikka olib chiqish g‘oyasi dastlab qrim-tatar farzandi Ismoil Gasprinskiy tomonidan ilgari surildi.

I. Gasprinskiy xalqni uyg‘otishning birdan bir yo‘li musulmon maktablarini isloh qilish deb hisobladi. U 1884 yili Bog‘chasaroyda o‘zining yangi usuldagi maktabini ochib, qirq kunda 12 bolaning savodini chiqardi. Yangi usul maktablari uchun “Xo‘jai sibyon” (“Bolalar muallimi”) nomli birinchi darsligi yozdi¹.

Ismoil Gasprinskiy o‘zi muharrirligida chiqqan “Tarjumon” gazetasida shunday yozgan edi: “Suyukli do‘stlarim, bizning uchun eng go‘zal ish ilm va maorif ishidir. Eng muqaddas intilish ilmga, maorifga intilishdir. Chunki insonni inson etgan mehnat

¹ Қосимов Б. Исмоилбек Гаспрали. – Т.: F. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. – Б.24.



va bilimdir. Bilim madaniy turmush (sivilizatsiya)ga yetishish vositasidir. Madaniy turmush esa insonning yashash maqsadi, usulidir”.

Ismoil Gasprinskiy nafaqat maktab tizimi, shu bilan birga balki musulmonlarning oliy bilim maskani hisoblangan madrasalarni ham isloh qilish lozim deb hisoblagan. U Qozon, Ufa, Orenburg, Astraxan, Toshkent, Xiva, Samarqand, Buxoro, Boku, Bog‘chasaroy kabi shaharlarda 9-10 madrasani qayta tashkil etish, ularda geografiya, tarix, tabiiy fanlar, arifmetika, pedagogika asoslari, rus qonunchiligi kabi umumtalimiy fanlarni o‘qitishni o‘z tillarida olib borish, qayta tiklangan madrasalarga “oliy” yoki “birinchi darajali” madrasa maqomini berish zarurligini ta’kidlagan. Hatto yangi tashkil etilajak madrasalar uchun yiliga sarflanadigan 80-100 ming so‘mni musulmon xayriya jamiyatlari yig‘ib berishlari mumkinligi, agarda shunday qilinsa, o‘n besh yil ichida nodon mutaassiblar o‘rnini taraqqiyparvar ruhoniylar, bilimdon ulamolar, befahm mul-lalar o‘rnini o‘z ishiga mohir o‘qituvchilar egallashi mumkinligi xususidagi g‘oyani ilgari surgan².

Ismoil Gasprinskiy 1892- yil 5- iyunda Turkiston general-gubernatori baron A.B.Vrevskiyga o‘lkadagi maktab va madrasalarni tubdan isloh qilishga qaratilgan mazmunda xat bilan murojaat qildi. Ushbu xatida mahalliy maktablarda o‘qitish tartiblarini soddalashtirish, ibtidoiy maktabda olti yilda beriladigan bilimni 2 yilda amalga oshirish, shu yo‘l bilan tejab qolingan yilda esa musulmonlar turmush tarzi va maktabiga daxl qilmagan holda rus tilini o‘qitishga sarflash masalasini qo‘ygan edi.

General-gubernator A.B.Vrevskiy bilan yozishmalardan naf chiqmagach, Ismoil Gasprinskiy Turkiston safariga otlanadi. U Turkistonga ikki marta safar qilgan bo‘lib, birinchisi 1893 yilda, ikkinchisi esa 1908 yilda amalga oshirildi³. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z xotiralarida yozishicha, Ismoil Gasprinskiy bilan 1893 yili Samarqandda,

² Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Т.: Университет, 2006. – Б.24,17.

³ Сабирова Н. К опыты возникновения новометодных школ в национальных окраинах Российской империи // Восток-Запад: аспекты взаимодействия. Материалы научной конференции. – Т. 2006. – С. 156.



1900 yili Istanbulda uchrashib, suhbatlashgan⁴. Ismoil Gasprinskiyning Turkiston va Buxoroda bo‘lishi milliy taraqqiyparvarlarga yangi kuch va ruh bergan edi⁵.

1892-1893- yillarda Buxoro amiri Abdulahadxon Rossiyaning markaziy shaharlariga sayohati davomida Boqchasaroyga ham kelgan va Ismoil Gasprinskiy bilan tanishgan, suhbatlashgan edi. Ismoil Gasprinskiy suhbat chog‘ida amirga yangi usul maktablarining afzalliklari haqida gapirib bergan. Uning g‘oyalariga qiziqish bilan qaragan amir Abdulahadxon Ismoil Gasprinskiyni Buxoroga taklif etgan. 1893-yili Ismoil Gasprinskiy Toshkent va Samarqandga sayohatidan so‘ng Buxoroga tashrif buyurgan. Buxoroda Ismoil Gasprinskiy sa'y-harakati bilan Abdulahadxonning otasi sharafiga “Muzaffariya” deb atalgan jadid maktabi ochilgan⁶.

1893 yil iyul oyida Ismoil Gasprinskiyning Samarqandga tashrifi aholi tomonidan ko‘tarinki ruhda qabul qilingan. Samarqandda istiqomat qiluvchi mashhur tatar savdogari Abdug‘ani Husainov Ismoil Gasprinskiydan jadid maktabi ochishni iltimos qilib, uni tashkil etish bo‘yicha barcha harajatlarni o‘z zimmasiga olgan. Shu tariqa Turkiston o‘lkasida birinchi jadid maktabiga asos solingan. Ismoil Gasprinskiy iltimosiga ko‘ra, unga hamrohlik qilgan Sulton Majid G‘anizoda Samarqandda qirq kun qolib, o‘qitish usullarini o‘rgatgan. Bu maktab mahalliy aholi o‘rtasida bolalarning tez savod chiqarganligi sababli “mashinali maktab” nomi bilan mashhur bo‘lgan⁷.

“Turkestanskie vedomosti” gazetasining 1893- yil 5- sentabrdagi sonida mazkur yangi usul maktabi haqida xabar bosilgan. Unda qayd etilishicha, Ismoil Gasprinskiy g‘oyasi va A.Husainov mablag‘i hisobiga ochilgan yangi usul maktabi mahalliy aholi tomonidan hursandchilik bilan kutib olingan. Chunki mahalliy eski usul maktabida

⁴ Беҳбудий М. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 1997. – Б.79-81.

⁵ Аҳмедов С. Жадидчилик ва истиқлол // Марказий Осиё XX аср бошида: ислохотлар, янгиланиш, тараққиёт ва мустақиллик учун кураш. – Т.: Маънавият, 2001. – Б. 82.

⁶ Исокбоев А.А. Туркистон ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида татар-бошқирд маърифатпарварларининг фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фан. номз. ... дисс. – Наманган, 2008. – 39.

⁷ Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари... – Б. 33, 35.



yillar davomida qo‘lga kiritilgan natijaga yangi usul maktabi o‘quvchilari bir necha hafta davomida erishganlar.

Ammo jadid maktablari faoliyati Rossiya imperiyasi ma'murlari tomonidan ijobiy tarzda qabul qilinmagan. Bunga misol qilib, Turkiston o‘lkasi o‘quv yurtlari uchinchi noziri Nalivkinning 1893 yil 12 sentyabrda Turkiston o‘lkasi o‘quv yurtlari bosh noziriga yozgan 346-sonli xatini olish mumkin. Ushbu maktabda u Samarqandda ochilgan yangi usul maktabining hech qanday ruxsatnoma olmasdan faoliyat ko‘rsatayotganligini bildirib, o‘zining salbiy munosabatini qayd etgan.

Maktab hukumat ruxsatisiz ochilganligi tufayli tez orada yopilgan bo‘lishiga qaramay, ko‘zlangan natijaga erishilgan, ya'ni uning dovrug‘i Turkistonning boshqa shaharlariga ham yoyilgan edi. Xususan, bu oradan ko‘p o‘tmay, Toshkent va Farg‘onadagi maktablarni ham isloh qilish bo‘yicha harakatlarga turtki bergan edi.

Yangi usul maktablari Qrimdan asta-sekin Rossiya imperiyasining markaziy guberniyalariga ham tarqala boshladi. Ismoil Gasprinskiy izdoshlari uning g‘oyalarini targ‘ib etib, yangi usul maktablarini ocha boshlaganlar. XIX asr so‘nggi o‘n yilligiga kelib, bunday maktablar Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarida ham tashkil etila boshladi. Bu maktablarning dastlabki asoschilari tatar muallimlari edi.

Ismoil Gasprinskiy 1898 yili jadid maktablarining qonun-qoidolari, o‘quv rejasi, darsxonaning holati, yillik imtihon o‘tkazish tartibi, namunali dars jadvali haqida ma'lumot beruvchi “Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo‘ldosh” nomli uslubiy asarini yaratdi⁸.

1898- yilda To‘qmoqda (Qirg‘iziston) xam shunday maktab ochildi. 1899 yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901 yilda Qo‘qonda Saloxiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo‘lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik xarakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar xam yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning «Ustozi

⁸ Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари... –Б.31.



avval» (1903), Munavvarqorining «Adibi avval» (1907), Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912) darsliklari alohida e'tiborga molikdir.

Turkiston jadidlari o'zlarining dastlabki faoliyatlarini ma'rifatparvarlikdan boshlagan edilar. Vatanni ozodlikka, milliy mustaqillikka yetaklashdek muqaddas g'oya eng ilg'or qarashli jadid ziyolilarning fikrida bo'lgani holda, mavjud sharoitda unga etishuv iloji yo'q edi. Unga faqat tinimsiz ma'rifiy-siyosiy faoliyat orqaligina erishish mumkin edi. Jadidlar yurt istiqlolini va taraqqiyotini zamonaviy bilimlar bilan qurollangan etuk mutaxassislarisiz tasavvur eta olmaganlar. Shu munosabat bilan ular asosiy e'tiborni mahalliy xalq bolalaridan ilg'or fikrli, bilimli kadrlar tayyorlashga qaratganlar. Ular bu vazifalarni amalga oshirish uchun maktab-maorif ishlarini yaxshi yo'lga qo'yishni va yosh avlod ta'lim-tarbiyasini birinchi navbatdagi masala, deb bildilar. Shu maqsad yo'lida o'tgan asr oxirlarida jadidlar butun Turkistonda, yangi usul maktablari ochish uchun harakat boshladilar.

Shunday maktablarning tashkil topishiga bir tomondan chor ma'murlari, ikkinchi tomondan ijtimoiy voqelikka o'zining tor dunyoqarashi nuqtai-nazaridan baho beruvchi kishilar to'squinlik qildilar⁹.

Turkiston xalqlari turmushidagi har bir yangilik mustamlakachi ma'murlar nazaridan chetda qolmagan. XX asr bo'sag'asida o'lkamizda yangi usul maktablarining paydo bo'lishi ham ularni g'oyatda tashvishga sola boshladi.

Turkiston bosib olingach, bu yerda mustamlakachilar o'zlarining rus-tuzem maktablarini ocha boshladilar. Xalq maorifi sohasida hukumat rus-tuzem maktablari bilan yonma-yon, yangi usul maktablarining paydo bo'lishi sira ko'z yumib bo'lmaydigan hol ekanligi, bu maktablar zamon talablari asosida kelib chiqqanligini podsho ma'murlari ham yaxshi anglar edilar.

Eski usul maktablari bolalarga asosan diniy tarbiya berish bilan cheklanganligi, zamonaviy ilm-fanlarning o'qitilishi bu maktablar uchun yot hodisa ekanligini va shu sababli ham bu maktablar mustamlakachilar uchun unchalik xavf tug'dirmasligini chor

⁹ Сабирова Н. К опыты возникновения новометодных школ в национальных окраинах Российской империи // Восток-Запад: аспекты взаимодействия. Материалы научной конференции. – Т. 2006. – С. 157.



ma'murlari yaxshi tushunib yetgan holda, yangi usul maktablariga jiddiy e'tibor qarata boshladilar. Shu sababli ham Turkistonda maktab ishlarini asosiy vazifalardan biri bo'lishi kerak deb bildilar.

Yangi usuldagi maktab xonalarining ichki tuzilishi, eski maktablardan parta, yozuv taxtasi, geografik karta va o'qituvchi uchun stol-stulning borligi bilan ajralib turgan. Maktablarda bolalar 2-3 yil o'qishni davom ettirganlar. Usuli savtiya maktablari eski usul maktablaridan ta'limning sifati bilan ham farq qilgan. Bu e'tiroflar o'sha davr matbuotida ham o'z aksini topgan. Masalan, Andijondagi Azim Qodirov maktabi 3 sinfli bo'lib, 1-sinfda bolalarga o'qish va yozish, 2 -sinfda tajvid, hisob, 3-sinfda esa ibodati islomiya, sarfi turkiy o'rgatilgan. 1900- yil may oyida Otabek qozi ishtirokida ushbu maktab o'quvchilaridan imtihon olingan. O'quvchilar imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirganlar. Imtihon ishtirokchilaridan Tojiddinbek Otabekovning yozganidek: «...Eski zamon maktablari birlan usuli jadid maktabini farqi nihoyat darajada ma'lum va ravshan bo'ldi. Usuli jadid maktabi birlan eski zamon maktablarini bir joyga bormoq uchun otash aroba birlan piyoda odimga misol qilsak ham to'g'ridur...»¹⁰.

Jadid maktablarining soni ortib borgan sari, ulardagi ta'lim tizimi ham takomillashib borgan. Imtihonlar keng xalq ommasi ko'z o'ngida, qishloq yoki shaharlarning ilg'or ziyoli va ulamolari davrasida «Imtihon majlisi» nomi bilan o'tkazilgan. Bunday holatlarda yangi usul maktablari o'zining afzallik tomonlarini to'liq namoyish eta olgan. Aksariyat omma imtihondan mamnun bo'lgan holda tarqalganlar.

Ilg'or fikrli kishilarning sayi-harakatlari bilan ham ko'plab yangi maktablar ochilgan. Ba'zan muallimlik uchun chetdan kishilar taklif etilgan. Masalan, O'sh uezdiga qarashli Qurshob qishlog'ida qishloq boshqaruvchisi erali Mingboshi 1914-yil yanvar oyida yangi usul maktabi ochib, Toshkentdan G'ulom Zafariyni muallimlik uchun olib keladi.

¹⁰ Аҳмедов С. Жадидчилик ва истиқлол // Марказий Осиё XX аср бошида: ислохотлар, янгиланиш, тараққиёт ва мустақиллик учун кураш. – Т.: Маънавият, 2001. – Б. 83.



Ayrim adabiyotlarda Turkistondagi dastlabki yangi usul maktabi sifatida Is'hoqxon Junaydulloxon Xo'ja o'g'li (Ibrat)ning maktabi eslatiladi. Is'hoqxon Ibrat (1862-1937) 1878-1886 yillari Qo'qonning Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida ta'lim oladi. O'sha kezlari u Bog'chasaroyda nashr etiladigan «Tarjumon» gazetasi sonlari bilan ham muntazam tanishib turgan. Ushbu nashr orqali u yangi usul maktabining afzalliklari, ta'lim usullari, darsxonalarning tuzilishi va darsliklari haqida ma'lumotlar olib borgan. Madrasani tamomlagach, 1886 yil To'raqo'rg'onga qaytadi va tovush usuliga asoslangan yangi maktab ochadi. Lekin maktab tez orada yopib qo'yiladi. U 1907 yilga kelib, ikkinchi bor maktab ochadi. Uning maktabida Yevropa tillaridan ham darslar o'tilgan.

Mustamlaka ma'murlari yangi usul maktablaridagi darsliklar, ularning siyosiy-mafkuraviy yo'naltirilganligiga ham e'tiborni qaratib borganlar. O'quv inspeksiyasi tomonidan ushbu maktablar qattiq nazorat ostiga olingan¹¹.

Usuli savtiya maktablari sonining ortib borishi ularni darslik va boshqa o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash muammosini keltirib chiqardi. Bu vazifalarni ham yangi maktab muallimlari o'z zimmlariga oldilar. Turkiston taraqqiyparvalaridan Said Rasul Azizov, Munavvar qori, M.Behbudiy, A. Ibodiy, A. Zohiriy va boshqalar maktablar uchun darsliklar yozdilar. Masalan, A.Zohiriy 1916 yili «Imlo» kitobini yozdi va kitobni Qo'qondagi «G'ayrat» kutubxonasi tomonidan nashr ettirdi. H. H. Niyoziy esa, maktablar uchun «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi», «Qiroat kitobi» kabi kitoblarni yozadi. Shuningdek, Namangan taraqqiyparvarlaridan Dadamirza qori «Muftoh ul-avval» deb nomlanuvchi darslik yozgan edi.

Yangi usul maktablaridagi o'qituvchilarning ko'pchiligi madrasalarda tahsil olgan bo'lib, ba'zilar esa xuddi shunday maktablarni tamomlagan kishilar edilar. Darslar o'quv jadvali asosida, tsenzura ko'rigidan o'tgan darsliklar bo'yicha olib borilgan. Maktablarda o'quvchilar soni 50 tadan 145 tagacha yetgan. Barcha

¹¹ Исокбоев А.А. Туркистон ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида татар-бошқирд маърифатпарварларининг фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фан. номз. ... дисс. – Наманган, 2008. – 42.



maktablarda har oyiga o‘qish uchun 50 tiyindan 1 so‘m 50 tiyingacha haq olingan. Kambag‘al oilalarning bolalari esa ba‘zan to‘lovdan ozod etilganlar.

O‘quv inspeksiyasi tomonidan davlat tilini bu maktablarda o‘qitish tavsiya etilgan. Yangi usul maktablarida tabiiy fanlarning o‘qitilishi chor ma‘murlarini g‘oyat tashvishga solar edi. Yangi usul maktablari o‘zining keng ko‘lamliligi, o‘qitish sifati bilan eski usul maktablaridan ustun bo‘lib, mahalliy aholi ishonchini qozongan va hukumat rus-tuzem maktablariga nisbatan erli xalq hayotiga tezroq kira boshlagan edi.

Mustamlakachilar imperiya manfaatlarini ko‘zlab, o‘lkada rus va mahalliy xalq bolalari uchun rus-tuzem maktablarini tashkil etdilar. Bosqinchilar tomonidan mahalliy xalq turmushiga kiritilgan har qanday yangilikda xoh yashirin bo‘lsin, xoh oshkora qandaydir siyosiy maqsadlar yotadi. Rus-tuzem maktablarining Turkistonda joriy etilishi ham bunday maqsadlardan xoli emas edi.»...Ulkan ruslashtirish rejasini amalga oshirishda maktab katta ahamiyat kasb etishi lozim» degan nuqtai nazar bilan ish tutuvchi general-gubernator Rozenbax davrida o‘lkada dastlabki rus-tuzem maktablari ochildi. Ilg‘or ziyolilarimiz o‘sha davrdayoq bu makkorona siyosatni to‘g‘ri anglab etgan edilar. Bunday maktablarni Ismoilbek Gasprinskiy ham o‘z vaqtida tanqid qilgan bo‘lsa, M. Behbudiy:»...Russkiy-tuzemniy maktablarig‘a o‘qig‘onlar ziyoli tugul, hiyoli hisoblanmaydurlar. Ular faqat ruscha chalasavod kishilardir»,- degan edi¹².

Jadidlar davriy matbuotda ham rus-tuzem maktablariga nisbatan aholining qarashlarini ifoda etuvchi maqolalarni uchratish mumkin: «...Iskobelev uezdiga tob‘e Oltiariq qishlog‘ida birgina tuzemniy shko‘l bor. Lekin bu maktabning o‘qituv jihati butunlay tartibsiz...Qarilarni qo‘yaylik yoshlar ham bunga hech bir diqqat qilmaydurlar...aytur so‘zlari shko‘lga bola bersang yo‘ldan ozadur demakdin iboratdur...».

Musulmon o‘quv yurtlariga qarama-qarshi qo‘yilgan rus-tuzem maktablari aholini ozchilik qismi orasida biroz e‘tibor qozongan bo‘lishiga qaramay, bu maktablar hech qachon ommaviy bo‘la olmasligini chor ma‘murlari yaxshi anglab etgan edilar.

¹² Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари... – Б. 38.



Mustamlakachilar qanday qilib bo‘lmasin, o‘lka xalqlarini tashqi dunyo bilan aloqa qilishlariga yo‘l qo‘ymaslik, ular diqqatini jahon miqyosidagi o‘zgarishlardan chetga tortishga harakat qilar edilar.

Podsho ma‘murlarining ta‘qiblariga qaramay jadid maktablarining soni ortib boraverdi. Masalan, ularning soni Qo‘qon shahrida 1914- yil yanvariga kelib 18 taga etdi.

Asrimiz boshlariga kelib Turkistonning ko‘pgina shahar va qishloqlarida usuli jadid maktablari mavjud edi. Samarqand, Toshkent, Qo‘qon, Namangan, Andijon, O‘sh, Marg‘ilon kabi yirik shaharlarda jadid maktablari bo‘lgani holda, kichik shahar va qishloqlarda ham maktablar ochila boshladi.

Turkiston taraqqiyparvarlarining ommaviy nashri hisoblanmish «Sadoyi Turkiston», jadidlar ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini tarqatishdagi asosiy vosita bo‘ldi.

Turkiston jadidlari Yevropa xalqlarining bu qadar taraqqiy qilishlarining bosh sababi, ularda maktab-maorif ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilganligida ekanligini anglab etib, bu fikrlarini o‘z maqolalari orqali gazeta sahifalarida aks ettirdilar.

Jadidchilik xarakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar xam yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval» (1903), Munavvarqorining «Adibi avval» (1907), Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912) darsliklari aloxida e‘tiborga molikdir.

Jadidlarning xalq ma‘rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo‘nalishdan iborat bo‘lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish.
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish.
3. Turli ma‘rifiy jamiyatlar tuzish xamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Shu dasturni amalga oshirish borasida Maxmudxo‘ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Abdulla Avloniy, Abdulxamid Cho‘lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko‘rsatishdi. Yangicha o‘qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta‘lim berish dasturi asosida



olib borildi. Bu dasturga ko‘ra maktablarda o‘qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo‘lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning taxsil muddati 4 yil bo‘lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o‘qigandan ko‘ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forscha, turkiy tilda bimalol so‘zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar.

Jadidlarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo‘lgan. Ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo‘lganlar, o‘zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar.

Turkiston taraqqiyparvarlari maorif sohasida asosiy e‘tiborni boshlang‘ich ta‘lim islohiga qaratdilar. Ularning ma‘rifatparvarlik harakatlari zoe ketmadi.

Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablarida ta‘lim olgan o‘quvchilardan keyinchalik ilm-fan, texnika, adabiyot va ijtimoiy hayotning turli jabhalarida nom taratgan arboblardan etishib chiqdilar.

Yangi usul maktablari jadid ma‘rifatchiligining ilk ko‘rinishi bo‘lishi bilan birga to taraqqiyparvarlik harakati sof siyosiy qiyofa kasb etgunga qadar ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi.

Adabiyotlar:

1. Аъзамхўжаев С.С. Туркистон Мухторияти. – Т.: Маънавият, 2000. – 168 б.
2. Баратов М. Ўзбекистонда маърифат учун кураш, - Т.: Узфанакадемнашр, 1961. – 157 б.
3. Бехбудий М. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 1997. – 312 б.
4. Валидий А.З. Бўлинганны бўри ер. Туркистон халқларининг миллий мустақиллик учун курашлари тарихидан. –Т.: Адолат. 1997. – 248 б.
5. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Т.: Шарқ, 1994. – 140 б.
6. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Т.: Университет, 2006. – 126 б.
7. Жадидчилик, ислоҳот, янгилашиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш (даврий тўплам №1) –Т.: Университет, 1999. – 221 б.



8. Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. - Т., 2000. – 278 б.
9. Иномжонов З. Туркистон АССРнинг тузилиши ва ривожланиши. – Т.: Ўздавнашр, 1957. – 267 б.
10. Қосимов Б. Долимов У. Маърифат дарғалари. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 228 б.
11. Мингноров А. Туркистонда 1917-1918 йиллардаги миллий сиёсий ташкилотлар (Миллий матбуот материаллари асосида). – Т.: Маънавият, 2002. – 62 б.
12. Муин Ҳ. Танларган асарлар / Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Н. Намозова. – Т.: Маънавият, 2005. – 148 б.
13. Мустафаева Н. Туркистон маорифи XX асрнинг 20-йиллари муаллифлари назарида // O‘zbekiston tarixi, 2004. – Б. 33.
14. Мустафаева Н. «Туркистон тўплами»да миллий маориф масалалари // Ўзбекистонда тарих фани: ютуқлар ва ривожланиш муаммолари. I қисм. – Т., 2006.
15. Исокбоев А.А. Туркистон ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида татар-бошқирд маърифатпарварларининг фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фан. номз. ... дисс. – Наманган, 2008. – 179 б